

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN  
SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 03. Issue 01. January 2026**

**SHEVALAR ORQALI MILLIY MADANIYAT VA  
AN’ANALARNI O’RGANISH**

**Lobar Sayfullayeva**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

kechki ta’lim 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek shevalarining milliy madaniyat va an’analarini o‘rganish borasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shevalar xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar hamda turmush tarzini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayonida shevalarning madaniy merosni saqlashdagi vazifasi, hududiy xususiyatlari hamda ularning adabiy til bilan o‘zaro munosabati yoritiladi. Shuningdek, globalla shuv sharoitida shevalarning yo‘qolib borish xavfi va ularni asrab-avaylash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola o‘zbek tilining lingvistik xilma-xilligini ochib berishga, milliy o‘zlikni anglash hamda madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek shevalari, milliy madaniyat, urf-odatlar, til va madaniyat, lingvistik meros, hududiy shevalar, adabiy til, globallashuv.

**Annotation.** This article analyzes the significance of Uzbek dialects in the study of national culture and traditions. Dialects are considered an important linguistic source that reflects the historical memory, customs, and lifestyle of the people. The study highlights the role of dialects in preserving cultural heritage, their regional characteristics, and their relationship with the literary language. In addition, special attention is given to the risk of dialects disappearing under the conditions of globalization and to the issues of their preservation. The article aims to reveal the linguistic diversity of the Uzbek language, contribute to the understanding of national identity, and ensure the transmission of cultural heritage to future generations.

**Keywords.** Uzbek dialects, national culture, traditions, language and culture, linguistic heritage, regional dialects, literary language, globalization.

Har bir millatning tili uning madaniyati, tarixi hamda ijtimoiy hayotining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbek tili o‘zining boy va qadimiy manbalari bilan Markaziy Osiyodagi eng yirik va rang-barang tillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning tarkibida

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 01. January 2026

hududiy shevalar va dialektlar muhim o‘rin tutib, tilning ichki imkoniyatlari hamda xilm a-xilligini namoyon etadi. O‘zbek shevalari turli mintaqalarda yashovchi aholining turmu sh tarzi, urf-odatlar va madaniy an‘analarini o‘zida aks ettiradi. Ushbu shevalar nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki milliy madaniy merosni asrash va chuqur o‘rganish nuqtayi nazaridan ham bebaho ahamiyatga ega.

Dialektologiya fani shevalarni o‘rganadigan fan. Dialektologiya so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, sheva, lahja, dialektlar haqidagi bilim degan ma‘noni anglatadi. So‘zlarning leksik, morfologik va grammatik shaklanish chegaralarini O‘zbek dialektologiyasida o‘rganiladi. Har bir milliy tilning asosini shevalar tashkil qiladi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy ma‘naviy qadriyat hisoblanadi.<sup>1</sup> Shevashunos bilimdonlardan biri professor E. D. Polivanov: “.....turkiy tillarning birortasi ham shevala raro o‘zbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi, demak, .... birorta turkiy til ham bu qadar spetsifik, dialektal xilma-xillik xususiyatiga ega emasdir. Bu esa, tabiiy, adabiy til uchun biror dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada og‘irlashtiradi” degan edi.<sup>2</sup>

Sheva (fors. — harakat tarzi, tarz, usul) — tilning fonetik, grammatik va lug‘aviy jihatlardan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi — sezilarli lisoniy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llanadi. Sheva — bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so‘z yasalishi va lug‘aviy belgilariga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Masalan, qipchoq lahjasining mang‘it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub Marg‘ilon shevasi va boshqalar o‘zbek tilining eng kichik hududiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Alohida Shevalar birikib, lahjasi tashkil etadi.

Milliy til tushunchasining hajmi va qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, lahja va shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. Adabiy til me‘yorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi tafovutlarning kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli Shevalar ham asta-sekin o‘z hususiyatlarini yo‘qota boradi.

O‘zbek shevalarini o‘rganishga G‘ozi Olim Yunusov, Ye.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, F. Abdullayev, Sheva Shoabdurahmonov, A. Ishayev, S. Otamirza

<sup>1</sup> Ashirboyev Samirxon O‘zbek dialektologiyasi” TOSHKENT 2013

<sup>2</sup> “O‘zbek dialektologiyasi” B. To‘ychiboyev, B. Xasanov TOSHKENT 2004

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

**Volume 03. Issue 01. January 2026**

yeva, O. Madrahimov va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Ad.: Reshetov V.V., Sh oabdu rahmonov Sheva, O‘zbek dialektologiyasi, T., 1978. Abduvahob Madvaliyev.<sup>3</sup> O‘zbek sh evalari quyidagi olimlar tomonidan tasnif qilingan: I. I. Zarubin (hududiy tamoyil asosid a tasnif etgan), ye. D. Polivanov (lisoniy-hududiy (lingvoareal) tamoyil), G‘ozi Olim Yu nusov(etnogenetik tamoyil), K. K. Yudaxin(etnik tamoyil), A. K. Borovkov(etnogenetik tamoyil), V. V. Reshetov (hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy, lisoniy-hududiy (lingvoar eal) tamoyillar asosida ish ko‘rgan.

Shevalar orqali milliy madaniyat va an‘analarni tadqiq etish xalqning tarixiy xotira si, o‘ziga xos tafakkuri hamda avloddan avlodga yashirin tarzda o‘tib kelgan tarixiy ma’l umotlarni ochib beruvchi muhim ilmiy manba sanaladi. Hududiy nutq shakllarida saqlan ib qolgan til birliklari orqali muayyan mintaqaga xos turmush tarzi, urf-odatlar, qadimiy t ushunchalar va til taraqqiyotining bosqichlari aniqlanadi, bu esa milliy o‘zlikni anglash j arayonini chuqurlashtirib, umumiy o‘zbek madaniyatini yanada teranroq tushunishga im kon yaratadi. Ayniqsa, adabiy til manbalarida uchramaydigan qadimiy so‘zlar, iboralar v a noyob nomlarning shevalarda yashab kelayotgani xalqning o‘tmish hayoti va dunyoqar ashini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Har bir hududiy sheva o‘zida muayyan ma daniy qatlamni mujassam etib, musiqa, marosimlar, urf-odatlar hamda mental xususiyatl arni ifodalaydi va bu holat milliy madaniyatning rang-barangligini yaqqol namoyon qilad i. Shu bilan birga, hududiy xilma-xillik qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, o‘simlik va h ayvonot dunyosiga oid atamalar orqali tilning boy leksik salohiyatini ochib beradi. Sheva larda kuzatiladigan fonetik va grammatik o‘ziga xosliklar esa adabiy tilning shakllanishi va rivojlanish jarayonini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu jarayonlarni o‘rg anishda mahalliy aholining, ayniqsa, keksalarning nutqidan yozib olingan materiallar, hu dudiy so‘zlarning ma’no va qo‘llanishini tahlil qilish, shevalarni bir-biri hamda adabiy ti l bilan qiyoslash muhim ilmiy usullar sifatida qo‘llaniladi. Shuningdek, til hodisalarining geografik tarqalishini aniqlash orqali shevalarning hududiy chegaralari va rivojlanish yo‘ nalishlari belgilanadi. Natijada, shevalarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazarid an, balki milliy merosni asrab-avaylash, uni ilmiy asosda o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki shevalar xalqning jonli tarixi, madaniy xotirasi va ruhiy dunyosini o‘zida mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda o‘zbek shevalarini o‘rganish asosan og‘zaki shaklda, ya’ni so‘zlab eshitish yoki yozma manbalar orqali amalga oshiriladi. Ammo bu usullar hududiy

<sup>3</sup> O‘zMU. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

**Volume 03. Issue 01. January 2026**

shevalarning to‘liq tasvirini berishda yetarli emas va ularning yo‘qolib ketish xavfini oshirmoqda. Shu sababli, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish shevalarni saqlash va o‘rganishda yangi, innovatsion yondashuv sifatida e‘tirof etiladi.

Mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali foydalanuvchilar turli hududlarning shevalarini eshitishi, talaffuzini solishtirishi va ularning leksik xususiyatlarini o‘rganishi mumkin. Shu bilan birga, interaktiv xaritalar yordamida har bir hududning shevaviy xususiyatlari vizual tarzda ko‘rsatiladi, bu esa foydalanuvchilarga geografik joylashuv va lingvistik farqlarni bir vaqtning o‘zida tushunishga yordam beradi. Masalan, bir so‘zning turli viloyatlarda qanday talaffuz qilinishi yoki ma‘nosining qanday o‘zgarishi interaktiv xarita orqali aniq namoyon bo‘ladi. Xususan, audio-video arxivlar yaratish orqali shevalarning fonetik va intonatsion xususiyatlari ham saqlanishi mumkin. Bu arxivlar nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi, balki kelajak avlodlarga ham hududiy madaniyat va urf-odatlarini o‘rganish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida shevalarning yozib olinishi, toifalanishi va tahlil qilinishi ularning yo‘qolib ketishini oldini olishga, shu bilan birga, o‘zbek tilining lingvistik xilma-xilligini saqlashga xizmat qiladi.

Natijada, raqamli platformalar orqali shevalarni jamlash va o‘rganish nafaqat ilmiy nuqtai nazardan ahamiyatli, balki milliy madaniyatni asrab-avaylash, yosh avlodning ona tili va hududiy o‘zligini anglashida muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv milliy tilni saqlash va rivojlantirishda zamonaviy, amaliy va interaktiv usul sifatida yangi ilmiy yo‘nalish yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek shevalari xalqning milliy madaniyati, tarixiy xotirasi va turmush tarzini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Shevalar orqali xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, an‘analari, ijtimoiy munosabatlari hamda hududiy xususiyatlari o‘z ifodasini topadi. Ular tilning ichki boyligi va rang-barangligini namoyon etibgina qolmay, balki milliy o‘zlikni anglashda ham muhim manba vazifasini bajaradi. Globallashuv jarayonida adabiy tilning ustunlashuvi va ommaviy axborot vositalarining ta‘siri natijasida ayrim shevalarning yo‘qolib borish xavfi mavjud bo‘lib, bu holat milliy madaniy merosning ayrim qatlamlari unutilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois o‘zbek shevalarini ilmiy asosda o‘rganish, ularni tizimli ravishda hujjatlashtirish va asrab-avaylash bugungi tilshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Shevalarni tadqiq etish orqali nafaqat til taraqqiyotining tarixiy

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

**Volume 03. Issue 01. January 2026**

bosqichlarini yoritish, balki o‘zbek xalqining boy madaniy merosini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
2. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
3. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: “Navro‘z”, 2016.
5. Abdurahmonov, G'. (1973). O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
6. Ibrohimov, S. (2007). O‘zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari. O‘zbek tili va adabiyoti, (4)
7. Do‘simov, Z. (2019). O'zbek shevalarida kelishik qo‘shimchalari.
8. Filologiya masalalari, (3), 120-125.
9. Abdullayev, F. (1961). Xorazm shevalari. Toshkent: Fan.
10. “O‘zbek dialektologiyasi” S. Ashirboyev – TOSHKENT, 2013
11. “O‘zbek dialektologiyasi” B. To‘ychiboyev, B. Xasanov, TOSHKENT 2004
12. “O‘zbek dialektologiyasi” V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov – TOSHKENT, 1978
13. “O‘zbek dialektologiyasi” N. Murodova – TOSHKENT, 2019

**Research Science and  
Innovation House**